



**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

**LABOR ECONOMICS**

# **MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

ilmiy elektron jurnali

## **LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

**2024 yil 4-son**

Volume 10, Issue 4, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI  
VA INSON KAPITALI**  
**ISSN: 3030-3117**



**LABORECONOMICS.UZ**

**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

*№ 4-2024*

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ**

**LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmiymaktab@gmail.com](mailto:ilmiymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog‘lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:****(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:****(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.  
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.  
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof  
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof  
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof  
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.  
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.  
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.  
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.  
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)  
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.  
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.  
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:****(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)  
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)  
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)  
Keynz Miller (AQSh)  
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)  
Masato Xivatari (Yaponiya)  
Gerxard Feldmayer (Germaniya)  
Eko Shri Margianti (Indoneziya)  
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)  
Rohana Ngah (Malayziya)  
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)  
Teguh Dartanto (Indoneziya)  
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)  
Muhammed Xoliq (Pokiston)  
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

<b>S.B.G'oyipnazarov</b> <b>I.A.Bakiyeva</b> <b>S.M.Kurbanbayeva</b>	<i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i>	6-19
<b>S.S.Amirdjanova</b>	<i>Приоритетные направления занятости населения и организационно-экономические механизмы его реализации.....</i>	20-33

**INSON KAPITALI**

<b>A.B.Irmatova</b> <b>A.M.Saidahmadov</b>	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi .....</i>	34-50
<b>F.O.Odilova</b>	<i>Касб-хунар таълими битирувчиларининг касбий кўникмаларини оширишга таъсир кўрсатувчи омиллар .....</i>	51-60
<b>T.N.Azimov</b>	<i>Роль высшего образования в обеспечении устойчивого роста человеческого капитала .....</i>	61-78
<b>T.B.Shomurodov</b>	<i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash .....</i>	79-86

**INSON TARAQQIYOTI**

<b>Sh.D.Akishova</b>	<i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>	87-93
<b>X.X.Yaxshimuratova</b>	<i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>	94-100
<b>Z.K.Murtozayeva</b>	<i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i>	101-109
<b>Ch.O'.Ro'zimurodova</b>	<i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>	110-120
<b>T.B.Shomurodov</b>	<i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>	121-130

**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**

<b>O.A.Norboyev</b>	<i>Мулкий муносабатлар механизмини такомиллаштириш.....</i>	131-141
---------------------	---	---------

<b>T.B.Shomurodov</b>	<i>Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida.....</i>	142-150
<b>MIGRATSIYA</b>		
<b>Z.T.Jumanova</b>	<i>Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish.....</i>	151-161
<b>INSON RESURLARINI BOSHQARISH</b>		
<b>M.F.Abdumannofova</b>	<i>Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari .....</i>	162-171
<b>G.R.Kuziyeva</b>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash .....</i>	172-180
<b>G.R.Kuziyeva</b>	<i>Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash .....</i>	181-188
<b>TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH</b>		
<b>S.K.Mansurov</b>	<i>Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'рни va ahamiyati .....</i>	189-203
<b>S.U.Ismailova</b>	<i>Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике .....</i>	204-213
<b>Sh.Sh.Atadjanova</b>	<i>Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish .....</i>	214-221
<b>D.B.Fayziyeva</b>	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish .....</i>	222-232
<b>Sh.U.Karimova</b>	<i>Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish .....</i>	233-238
<b>G.R.Kuziyeva</b>	<i>O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsilayalashdagi rolini baholash...</i>	239-247
<b>Sh.S.Sayfutdinov</b> <b>D.T.Alijonova</b>	<i>Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari .....</i>	248-254
<b>GENDER TENGLIGI</b>		
<b>B.A.Xonturayev</b>	<i>Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indeksleri asosida baholash .....</i>	255-270

**MUNOSIB MEHNAT**

**S.B.G'oyipnazarov**

*Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes...*

271-281



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK RESURLARDAN UNUMLI FOYDALANISH

**Karimova Shaxnoza Uktamovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti assistenti

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a139](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a139)

**Annotatsiya** Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda turistik resurslarni o'rni hamda ularni turizmga qo'shadigan hissasi bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi va tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** agroturizm, turistik resurs, agroturizm mahsuloti, agroturistik destinatsiya.

### ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ

**Каримова Шахноза Уктамовна**

Ташкентский государственный экономический университет

Ассистент факультета Турткул

**Аннотация.** В статье представлена информация и рекомендации о роли туристических ресурсов в развитии туризма в Узбекистане и их вкладе в туризм.

**Ключевые слова:** агротуризм, туристский ресурс, агротуристический продукт, агротуристическая дестинация.

### EFFICIENT USE OF TOURIST RESOURCES IN DEVELOPING TOURISM IN THE REGION

**Karimova Shakhnoza Uktamovna**

Tashkent State University of Economics

Assistant, Turtkul Faculty

**Abstract.** The article provides information and recommendations on the role of tourism resources in the development of tourism in Uzbekistan and their contribution to tourism.

**Keywords:** agrotourism, tourist resource, agrotourism product, agrotourism destination.

## **Kirish**

XXI asr boshlarida turizm dunyoning ko‘plab davlatlari va mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib, mutaxassislarning fikricha, rivojlangan mamlakatlarda neft va qurol savdosidan keyin uchinchi o‘rinni egallagan[1]. Turizm sohasining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rni mahalliy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq. Biroq, turizmning salbiy oqibatlarini oldini olish uchun ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-102-son Farmoni, hamda, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-sonli Farmoni 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. “O‘zbekiston- 2030” strategiyasining 58-59-maqsadlarini turizmga qaratilayotgan e‘tiborni davlat tomonidan kuchaytirilgani alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda asosan alohida mintaqani rivojlanish strategiyasi davlat tomonidan ishlab chiqilgan maqsadli dasturlar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ustuvor vazifalari qatoriga kiritilganligi sababli Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrini 2022-2026 yillarda kompleks rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish dasturlari ishlab chiqilgan. Qabul qilingan farmon va qarorlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mintaqaviy iqtisodiyot va siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Turistik resurslar deb – tabiiy, tarixiy, ijtimoiy – madaniy va boshqa turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir obyektlarga aytiladi. Turistik resurslar tasnifiga bir qancha yondashuvlar mavjud. Ulardan polyak iqtisodchisi M.Truasi (1963 y.) va fransuz iqtisodchisi P.Deferem (1972 y.) taklif qilgan tasnifi ancha takomillashgan. M.Truasi turistik resurslarni uch guruhini ajratadi:

1. Tabiiy turistik resurslar, «turistik kapital potentsiali» sifatida unga iqlim, havo, manzara, dengiz, ko‘l, daryolar, tog‘lar, o‘rmon va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslarni tabiiy – iqlimiy resurslar deb atash mumkin.

2. Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar, ya’ni arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy obyektlar va boshqalar. Bular ekskursiya obyektlari hisoblanadi.



3. «Qo‘shimcha» turistik resurslar, inson mehnati tomonidan yaratilgan ma‘lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko‘rsatish darajasini baholash mumkin. Lekin, Rossiyalik mutaxassislar M.E.Nemolyayeva va L.F.Xodorkov qabul qiluvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalari turistik resurslarga qo‘shish mumkin emas deb hisoblashadi. Rossiyalik mutaxassis Kristov T.T. turistik resurslarni 5 ta asosiy turlarini keltirgan bo‘lsa yana bir rus olimi A.D Chudnovskiy turistik resurslarni tabiiy – hududiy turistik muasssalar asosida ularni tabiiy – quruqlik va tabiiy – suvlik resurslariga, ularni o‘z navbatida tabiiy (qo‘riqxonalar, daryo vodiylari va b.) tabiiy – antropogen (bog‘lar, milliy bog‘lar va b.) va noyob resurslarga bo‘lgan [2].

### **Tadqiqot metodologiyasi**


Bugungi kunda turizmni rivojlantirishda turistik resurslarni ahamiyatini o‘rganish, maqsadli auditoriyasini aniqlash, ularni mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini o‘rganish maqsadida kuzatish, xorijiy tajribani o‘rganish, internet ma‘lumotlarini tahlil qilish, adabiy va statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

O‘zbekistonda tarixiy-madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7mingdan ortiq obyektlar mavjud. Soha mutaxassisi B.To‘rayev fikricha, ulardan 545 tasi –arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san‘at yodgorliklari va 5500 dan ortig‘i arxeologik ahamiyatga ega. 200 dan ortiq obyektlar ta‘mirlanmoqda, 500 tasi esa ta‘mirlanishga muhtoj. Ko‘p mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, ta‘mirlanish jarayonini o‘zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq muzeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat obyektlari miqdori bo‘yicha Toshkentda –144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda–201 ta, Xivada – 310 tani tashkil etadi. Shu sababdan milliy madaniy va tabiiy merosimizni mintaqalar va turizm faoliyati maqsadida har jihatdan o‘rganish va muhofaza etish o‘ta muhimdir [3].

Bugungi kunda O‘zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me‘morchiligi bilan mashhur bo‘lib qolmasdan, aktiv sayyohlik yo‘nalishlariga ham ega.O‘zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini, tog‘, vodiylar, cho‘l, daryo va ko‘lni uchratish mumkin. Ko‘rinib turibdiki yurtimizda turizmning barcha turlarini rivojlantirishimiz uchun turistik resurslarimiz mavjud va biz ulardan unumli foydalana olsak bo‘lgani.Yillar davomida tabiiy muhitning o‘zgarishi va rivojlanishida qonuniyat va yo‘nalishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan mintaqani kelajakda rivojlantirish strategiyasini tanlab olishda, tabiiy salohiyatdan unumli foydalanish va investitsion dasturlarni amalga oshirishda keng foydalanish zarur.Masalan, iqlim o‘zgarishi, cho‘llashuv jarayoni kelajakda aholi yashash punktlarini joylashtirish, mintaqaning xududiy tarkibini shakllantirishga ta‘siri kuchli bo‘ladi. Bu xolat mintaqaviy tabiiy-iqlim sharoitini

hisobga olgan holda uy-joy, ijtimoiy infratuzilma obyektlarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqishni talab etadi. Quyida 2022-2024-yillarda O‘zbekistonga qo‘shni davlatlardan tashrif buyurayotgan mehmonlar misolida yurtimiz turizmiga qiziqish bildiruvchilar soni yildan-yilga oshayotganini ko‘rishimiz mumkin.



**1-rasm. 2022-2024-yillarda O'zbekistonga MDH davlatlaridan turistik maqsadlarda tashrif buyurgan turistlar soni (ming kishida)**

Tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki qo‘shni davlatlar bilan amalga oshirilayotgan bojhonadagi yengilliklar keladigan sayohatchilarning sonini oshishiga sabab bolgan desak mubolag`a bo‘lmaydi. Quvonarlisi shu davrlar mobaynida ularning soni ortsa ortganki kamaymagan demak, turizmni rivojlantirishga e‘tiborni kuchaytirishga undaydi. Butunjahon turizm tashkilotining baholashiga ko‘ra, turistik servis rivojlangan shaharga tashrif buyurgan 100 nafar turist 20 ming AQSH dollari atrofida pul sarflaydi, ya‘ni har bir turist tomonidan bir sutkada shaharga 200 AQSH dollari miqdorida foyda keladi. Bu esa iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmga drayver soha sifatida qarashimiz kerakligini anglatadi.

### **Xulosa va takliflar**

O‘zbekistonda turistik xizmatlar sifatini yaxshilash uchun xalqaro standartlariga mos keladigan xizmatni taklif qilish, soha vakillarini ya‘ni xizmat ko‘rsatishda qatnashuvchi barcha subyektlarni hamda turizm sohasida ta‘lim beruvchi kadrlarni qayta tayyorlashda xalqaro andozadan foydalanish, Viloyatda turizm sohasidan keladigan tushumni oshirish uchun sayyohlarning yakka tartibda qulay va maroqli sayohat sifatini oshirishda xorij mamlakatlar tajribasidan foydalanish kerak. Yevropa amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, turizmning qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq holda rivojlantirish ya‘ni aholisining bir qismini ishlab chiqarish sektoridan xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘tkazish uchun kichik oilaviy mehmonxona biznesi shaklida agroturizmni rivojlantirish katta ijtimoiy-iqtisodiy dastur hisoblanadi. Uning vazifasi mahalliy iqtisodiyotning yangi o‘ziga xos tarmog‘ini tashkil etish orqali qishloq xo‘jaligi hududlari va ularning aholisini rivojlantirishga turtki berishdir. Bunday davlat siyosati ijtimoiy va ijtimoiy-madaniy maqsadlarni ko‘zlaydi: qishloqlarning tanazzulga uchrashini, aholining kamayishini va salbiy ijtimoiy hodisalarning kuchayishini to‘xtatish, mintaqalarning madaniy merosi va milliy o‘ziga xosligini saqlab qolish va qisman tiklash. kabilarni qamrab oladi. Viloyatlar kesimida turizm resurslarini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish muhim:

-Transport infratuzilmasini takomillashtirish. Bu viloyatlararo aloqalarni mustahkamlash va turistlarning mintaqalarga oson yetib borishini ta‘minlaydi.

-Madaniy tadbirlarni rivojlantirish. Har bir viloyat o‘zining an‘anaviy festivallari va tadbirlarini o‘tkazishi orqali turizmga e‘tiborni oshirishi hamda o‘z urf-odatlarini va an‘analarini targ‘ib qilishi nafaqat chet ellik mehmonlarni balki mahalliy aholining ham e‘tiborini jalb qiladi.

-Agroturizm imkoniyatlaridan foydalanish, agroturistik destinatsiyalarni o‘rganish, agroturizm maxsulotlarini targ‘ib qilish, mavsumda yarmarkalar tashkillashtirish.

-Ekoturizm imkoniyatlarini kengaytirish. Bu tog‘li va ekologik hududlarda turizmni rivojlantirish turistik qiziqishlari doirasiga faol dam olish va sport turizmini rivojlantirishni nazarda tutadi. (qoyaga ko‘tarilish va chang‘i sporti, ta‘lim maqsadlaridagi sayohatlar shular jumlasidandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

3.2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni 2023 y 11 sentyabr

5. А.Д Чудновский. Управление индустрией туризма России в современных условиях. М.: КНОРУС, 2007

6. Shamuratova N. T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari: Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati.– Toshkent, 2011.–26.3 Ibadullayev N.E. O‘zbekistonning turistik resurslari.– Samarqand, 2008.

7. Xidirova G.R., Raxmatullayeva F.M. MINTAQAVIY TURIZM O‘quv qo‘llanma “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2020 (14-bet)

8.Agalarova, E. G. Rossiyada agroturizm bozorini shakllantirish xususiyatlari / E. G. Agalarova, E. A. Kosinova. — // Yosh olim. - 2012. - No 11 (46). — 140-143-betlar. — URL: <https://moluch.ru/archive/46/5742/> (kirish sanasi: 24.12.2024).

9 Smith, M. (2019). Tourism and Regional Development. New York: Routledge.

7 UNWTO (2021). Global Tourism Trends and Impact. Madrid: United Nations.

8 Davlat Statistika Qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston turizm ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobot.

# Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz